

JADIDLAR: MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOTI**Jadids: The Life of Mahmud Khoja Behbudi**

Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti kimyo yo‘nalishi talabalari
Oripova Zebo va Mamajonova Arofatxon Ilmiy rahbar: **Keldiyeva Shahnozaa**

Annotatsiya: Jadidlar harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda shakllangan islohotchilik harakati bo‘lib, u xalqning ma‘rifati va madaniyatini oshirish, milliy uyg‘onishni rag‘batlantirishga qaratilgan edi. Ushbu harakatning asoschilari Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudi kabi ma‘rifatparvarlar edi. Ushbu maqolada jamiyat arbobi sifatida xususiy hisoblangan Mahmudxoja Behbudiyaning O‘zbekiston milliy adabiyotini va tarixini o‘rganishga katta e‘tibor qaratganligi va o‘zining tadqiqotlari bilan uni rivojlantirganligi haqida so‘z yuritiladi.

Annotation: The Jadids movement was a reformist movement formed in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries, which was aimed at increasing the enlightenment and culture of the people, stimulating national awakening. The founders of this movement were such Enlightenment leaders as Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidkhanov and Mahmudkhoja Behbudi. This article mentions that Mahmudkhoja Behbudi, considered a private figure of society, paid great attention to the study of national literature and history of Uzbekistan and developed it with his research.

Kalit so‘zlar: Dramaturgiya, oyna jurnali, padarkush drammasi, publististika, Borodino jangi, Risolayi jug‘rofiyayi umroniy.

Keywords: Dramaturgy, Mirror Journal, Padarkush Drama, Journalism, The Battle of Borodino, Biography of the Booklet.

Mahmudxo‘ja Behbudi 1875-yil 20-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida imom-xatib Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li xonadonida tug‘ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Onasi tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, Samarqandga XVIII asr oxirida, amir Shohmurod hukmronlik davrida ko‘chib kelgan Behbudi dastlab otasidan Qur‘on ilmini o‘rgangan, keyinchalik 6-7 yoshlarida tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘lida o‘qib, savod chiqargan. 15 yoshida boshqa bir tog‘asi Mulla Odil o‘zi mudarrislik qilgan madrasada o‘qitib ta‘lim bergan. Behbudiylar oilasi ma‘rifatparvar va ziyoli bo‘lgan. Ikki singlisi ham o‘qib, tahsil olgan. Qur‘onni yaxshi bilgan. Hatto katta singlisi „qoribegim“ unvoniga ega bo‘lgan. Behbudi 18 yoshida Chashmai ob volostida qozi vazifasida ishlagan tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘l ostida mirzalik qilgan. Tog‘asi oldida ikki yil ishlagach, mirzalik faoliyatini Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o‘g‘li qo‘lida davom ettiradi. Chunki bu paytda tog‘asi qozilikdan bo‘shatilgan. Mirza va qozilik bilan shug‘ullanib, so‘ng Jomboyda muftiylik darajasiga ko‘tarilgan. Behbudi Kabut bo‘lisida 10 desyatina yerga egalik qilgan. O‘ziga to‘q va badavlat kishidir. Behbudi 1899–1900-yillarda buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan birga Makka va Madinada haj safariga otlangan. Shu sababli Rossiya, Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan. Safar jarayonida sayohatning har qanday turi – poyezd, kema, otda va piyoda yurib dunyo kezgan. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. 1914-yili ikkinchi marta haj safari chog‘ida Shom, Quddus, Odessa, Istanbul va boshqa shaharlarni kezgan. O‘z sayohati davridagi xotiralarini Samarqandda nashr etilayotgan Oyna jurnalining tahririyatiga yuborib turgan. 1903–1904 yillarda Moskva, Peterburg, Orenburg, Qozon va Qrimda bo‘lgan. Maorif

sohasida Rossiya va tatar arboblari tajribasini o'rgangan. Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashuvi keyingi hayotiga ta'sir katta ko'rsatdi. Behbudiy Samarqand yaqinidagi Halvovi qishlog'ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochgan. Behbudiy 1914-yilda „Samarqand“ gazetasini chiqaradi. Gazeta o'zbek va tojik tillarida, haftada 2-marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to'xtadi. Shu yil 20-avgustdan u „Oyna“ jurnali chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o'zbekcha bo'lib, she'r, maqola (forscha), e'lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi. Behbudiy kitob nashrini ham yo'lga qo'yadi. Fitratning „Bayonoti sayyohi hindi“sini ruschaga tarjima qildirib bostirdi (1913). Behbudiy 1914-yil 29-mayda ikkinchi marta Arab mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Sayohati davomida Bayramali, Ashxobod, Krasnovodsk, Kislovodsk, Pyatigorsk, Jelesnovodsk, Rostov, Odessa shaharlarida bo'ladi, 8-iyunda Istanbulga keladi. Undan Adarnaga o'tib, yana Istanbulga qaytadi va 20-iyunda Ismoilbek Gaspirinskiy bilan uchrashadi. So'ng Quddus, Bayrut, Yofa, Halil ar-Rahmon, PortSaid, Shom shaharlarida bo'ladi. Sayohat xotiralari „Oyna“ jurnalida bosilib turadi. Bu „xotiralar“ har jihatdan muhim bo'lib, an'anaviy tarix-memuar janrining 20-asr boshidagi o'ziga xos namunasi edi. Muallif unda yo'l taassurotlariga, kishilar bilan uchrashuvlarining ibratli tomonlariga keng o'rin beradi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar to'playdi. Turli-tuman millatlar, ularning urf-udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Behbudiy ijtimoiy-siyosiy ishlarga qizg'in qo'shildi. Aslida bu faoliyat 1906-yildan boshlangan. Shu yili „Rusiya musulmonlari ittifoqi“ning Nijniy Novgorodda o'tkazilgan qurultoyida qatnashgan edi. Toshkentda bo'lib o'tgan (1917) Turkiston musulmonlarining qurultoyida ishtirok etib, nutq so'zladi. U musulmonlar orasidagi har qanday ixtilofga qarshi chiqdi. Behbudiy shu qurultoyda o'lka musulmonlar sho'rosining raisi etib saylandi. 1917-yil 26-noyabrda Behbudiyda Qo'qonda o'lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi "Turkiston muxtoriyati" e'lon qilindi. Uning g'oyaviy asoschilaridan biri Behbudiy edi. Muxtoriyat sho'rolar tomonidan vahshiyona bostirildi. Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytadi. U yerda ko'p tura olmay Toshkentga keladi. Turkiston sho'rolar hukumati rahbarlari bilan muzokara olib borishga urinadi, ammo natija chiqmaydi.

Dramaturgiya: Behbudiy 1911-yilda „Padarkush“ dramasini yozdi. Bu birinchi o'zbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo'lib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini „milliy fojia“ deb atagan. Nashr qilishga chor senzurasini yo'l qo'ymaydi. „Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining 100 yillik yubileyi sanasiga bag'ishlanadi degan vaj bilan Tiflis (Tbilisi) senzurasidan o'tkazadi. Drama 1913-yil bosilib chiqqan, ammo sahnaga qo'yish uchun yana bir yilcha vaqt ketadi. Asar Samarqandda 1914-yil 25-yanvarda sahnaga qo'yildi. Drama xalqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi. „Padarkush“ ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo'ldi. Drama Toshkentda 1914-yil 27-fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtiriladi.

Ijtimoiy publitsistika "Oyna" jurnali "Oyna" jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni

shart hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq „Ikki emas, to‘rt til lozim“, degan maqola bilan chiqib, o‘zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (masalan, fransuz) tilini bilish shart deb hisobladi. Ayni paytda tilning muhofazasi („Har millat o‘z tili ila faxr etar 1914, № 35), o‘zaro munosabatlari („Til masalasi“ 1915, № 11,12) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Adabiy tanqidga katta e‘tibor berdi. Uning xususiyatlarini belgilashga urindi. Boshqa adabiy janrlar bilan tenghuquqligi masalasini ko‘tardi („Tanqid saralamoqdir“1914, № 27). Millat sha‘nini oyoqosti qiluvchi fikr qarashlarga zarba berib, Turkiston xalqini o‘z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqdi („Sart so‘zi majhuldur“1915, № 22,23,25,26). Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Ilk maqolalaridayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, „xayoliy“, „bu toifaga qo‘shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik“ deb yozgan edi („Xayrul umuri avsatuho“ – „Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidir“, „Xurshid“ gazetasi 1906-yil, 6son). O‘zlikni anglashni muhim biladi. "Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni "qulq „marquq“ derlar", deb yozadi („Sart so‘zi majhuldur“, „Oyna“ jurnali, 1914, № 23). 1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo‘layotgan bir paytda o‘lka xalqlarini birlikka chaqiradi.

Kitoblari

- „Risolayi asbobi savod“ („Savod chiqarish kitobi“, 1904),
- „Risolayi jug‘rofiyayi umroniy“ („Aholi geografiyasiga kirish“, 1905),
- „Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy“ („Qisqacha umumiy geografiya“, 1906),
- „Kitobatul atfol“ („Bolalar xati“, 1908),
- „Amaliyoti islom“ (1908),
- „Tarixi islom“ (1909) kabi kitoblar chop ettiradi. Keyinchalik (1908-yilda) Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o‘z hovlisiga ko‘chirib keltiradi.

Behbudiy kutubxonasi Behbudiyning yurt obodligi yo‘lida boshlagan ijobiy ishlaridan biri „Behbudiya“kutubxonasining tashkil etilishi bo‘ldi. Behbudiy birinchilardan bo‘lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona „Yangi rasta“da ochilgan. Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda „Turkiston viloyatining gazetisi“da xabar berilgan edi. 27 bobdan iborat bo‘lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. Kutubxonaga yillik a‘zolik badali 3 so‘mni tashkil etgan. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug‘ullanishga undash bo‘lgan.

Kutubxona faoliyatida Mahmudxo‘ja Behbudiyga jadid ma‘rifatparvarlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va pedagog Abduqodir Shakuriy yordam bergan. Tuzilish jihatdan xilma-xil va boy fondga ega bo‘lgan. Chet el davlatlarda nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug‘atlar, xarita va atlalardan o‘qib foydalanish mumkin bo‘lgan. Kutubxonadagi kitoblar fondi dastlab 200, keyinroq 225 jildga yetgan. Kunda 14 soat davomida ishlagan. Ochilishidan 7 oy o‘tib, a‘zolari soni 125 kishiga yetgan. 1910-yillarga kelganda faoliyati so‘na boshladi. Bunga avvalo o‘lkadagi jadidlar va qadimchilar qarama-qarshiligi sabab bo‘lgan. Mullalar ota-onalar bilan suhbatlashib, kofirxona

sifatida u yerga borishni taqiqlab qo'yadi. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914-yildan moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. 15 a'zodan iborat yillik yig'ilish paytida kutubxonani saqlab qolish va iqtisodiy muammoni hal etish maqsadida spektakl qo'yishga kelishib olinadi. Teatr tomoshalari ham qadimchilar tomonidan rad etilgach, Kutubxona faoliyati tugaydi. Behbudiy kutubxonani o'zining uyiga ko'chiradi va Behbudiya kutubxonasi deb nomlaydi. Keyinchalik u yerda chet elda nashr qilingan kitoblarni sotishni ham yo'lga qo'yadi va ularning ro'yxati "Oyna" jurnalida e'lon qilib boriladi.

Vafoti 1919-yilning erta bahorida Mahmudxo'ja Behbudiy o'zi taklif etilgan, Parijda bo'layotgan Versal shartnomasiga qatnashish uchun yo'l oladi. Ammo Shahrizabzda rus ayg'oqchilari tomonidan ushlanadi va o'ldiriladi. Bizga ma'lumki, Versal shartnomasida ruslar taklif etilmaydi. Behbudiyning esa bu xalqaro shartnomada qatnashishi ruslarni sarosimaga solib qo'ygan. Shuning uchun ham Behbudiy o'ldirilgan, lekin buni ruslar qilganligi oydinlashsa Turkiston xalqi jumbushga kelishi va bu yomon oqibatlarga olib kelishi aniq edi. Shuning uchun ham ruslar Behbudiyini Buxoro amir Olimxon o'ldirtirdi deya jar solishadi. Allomaning qatl etilgani haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin yetib keladi. Behbudiyning o'limiga bag'ishlab Abdurauf Fitrat „Behbudiyning sag'anasin izladim“ she'rini, Sadriddin Ayniy „Behbudiy Afandini esga tushirib, qatl va qatlgohga xitoban“, „Behbudiy ruhiga ithof“ va Cho'lpon „Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga“ nomli marsiyalarini yozgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbek sovet ensiklopediyasi. 2-jild. T., 1979.
2. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. „O'zbekiston adabiyoti va san'ati“, 1990-yil 19,26-yanvar.
3. Qosimov Behbudiy Karvonboshi. „Yoshlik“ jurnali, 1990-yil, 1-son.
4. Aliev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. T., 1994.